

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№6

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 6
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

To‘lqin Zakirovich Teshabayev –iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasi raisi

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Hazratqulov Shahboz Boboqul o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MUNDARIJA			
1.	Jumayev Akbar Mahmudovich	Turizmning hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni va joylashtirish resurslaridan foydalanish samaradorligini statistik baholash	8
2.	Mamutova Amina Raxmetovna	Qurilish tashkilotlarida zamonaviy va ananaviy usullarda xarajatlarni hisoblashning usullari	14
3.	Нурматова Насиба Шерзодовна, Гозиев Ризоиддин Чулпонович	Экономическая роль Узбекистана как стратегического партнера в Центральной Азии	23
4.	Amatov Azizbek G‘ayrat o‘g‘li	Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarishda obligatsiya emissiyasining o‘rni: likvidlik, muddatlar nomuvofiqligi va qayta moliyalash risklari	29
5.	Saitkulov Suxrob Shavkatovich	Budjet tashkilotlarida ichki auditning natijadorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	36
6.	Kulboyeva Nargiz Majitovna	Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonini takomillashtirish	43
7.	Alimqulov Hikmatulla Bahrom o‘g‘li	Prognozdan ortiq soliq tushumlarini hududiy budjetlarda qoldirishning tabaqalashtirilgan mexanizmi	52
8.	Jo’rayev Shoxrux Yunusali o’g’li, Temirova Dilshoda Erkin qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida Scope creep muammosi: sabablari, oqibatlari va oldini olish mexanizmlari	61
9.	Djurayeva Iroda Bahrom qizi	O‘zbekistonda institutsional islohotlar samaradorligini xalqaro boshqaruv indikatorlari asosida baholash	68
10.	Otaxonov Komilxon Saidolim o‘g‘li	Oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy barqarorligini kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish	73
11.	Tillaxo‘jayeva Sadoqatxon Shuxrat qizi, Ungarbayeva Aynura Baxtiyer qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida xaridlar va manfaatdor tomonlar bilan ishlash	80
12.	Mexmonaliyev Abbosjon G‘ayratjon o‘g‘li	“Yashil” loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy-ekologik skoring modelini joriy etish mexanizmini takomillashtirish	88
13.	Shovkatov Nodirjon Ne’matjon öğli	Özbekistonda köçmas mulkni ommaviy baholaşning institutsional va metodologik asoslarini takomillaştiriş	95
14.	Jo‘rayev Isroil Ibrohimovich	Tijorat banklari faoliyati transformatsiyalashuvining bank xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishdagi roli	103

15.	Tadjibekova Dilnoza Baxtiyarovna	Fintex to‘lov servislarining (Payme, Click, Uzum) moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi roli va ahamiyati	112
16.	Davranov Odil Jumanazarovich	Surxondaryo viloyatida ovlangan baliqlar hajmi ko‘rsatkichlarini arima modeli yordamida prognozlashtirish	124
17.	Tashxodjayeva Sevara Yarashevna	HR-brendingning paydo bo‘lish shart-sharoitlari va asosiy tushunchalarining shakllanishi	135
18.	Shaislamova Nargiza Kabilovna, Zohidova Ruxsora Komiljon qizi	O‘zbekistonda islomiy moliya asosida investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari	141
19.	Сабирова Лола Шавкатовна	Взаимосвязь экономических и этических основ Узбекского предпринимательства	152
20.	Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich	O‘zbekistonda raqamli to‘lovlar va moliyaviy texnologiyalar bozorining rivojlanishi: tendensiyalar, xatarlar va tartibga solish yo‘nalishlari	158
21.	Mamarajabov Abdisamad Saidmurot o‘g‘li	Bojxona auditida tanlov mexanizmlari va ichki nazoratni baholashning ilmiy-amaliy jihatlari	166
22.	Qilichev Sanjarbek Javlonbek o‘g‘li	Sug‘urta kompaniyalarining investitsion jozibadorligi iqtisodiy mohiyati va uni shakllantiruvchi omillarning nazariy-metodologik asoslari	173

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

BOJXONA AUDITIDA TANLOV MEXANIZMLARI VA ICHKI NAZORATNI BAHOLASHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI

Mamarajabov Abdisamad Saidmurot o‘g‘li
Bojxona qo‘mitasining
Bojxona instituti
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: Abdusamad3918@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tashqi savdo operatsiyalari ko‘lamining jadal kengayishi va bojxona organlari nazorat resurslarining cheklanganligi sharoitida tovarlar chiqarib yuborilgandan keyingi bojxona auditi obyektlarini saralash hamda tekshiruv tartibotlarini differensiatsiyalash masalalari tadqiq etilgan. Ishda tashqi savdo subyektlarini bojxona auditi o‘tkazish uchun jalb etishda ularning integral reyting darajasiga asoslangan, audit shakli, davriyligi va qamrovini shu darajaga mutanosib ravishda belgilovchi tabaqalashtirilgan tanlov mexanizmi ilmiy asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *bojxona auditi, tashqi savdo subyektlari, reyting baholash, tanlov mexanizmi, ichki nazorat tizimi, COSO modeli, tizimga asoslangan audit, mustaqil auditorlik xulosasi, tranzaksion xarajatlar.*

НАУЧНЫЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ МЕХАНИЗМОВ ОТБОРА И ОЦЕНКИ ВНУТРЕННЕГО КОНТРОЛЯ ПРИ ТАМОЖЕННОМ ПРОВЕДЕНИИ

Мамаражабов Абдисамад Саидмурот угли
Таможенный институт
Таможенного комитета
Ташкент, Узбекистан
E-mail: Abdusamad3918@gmail.com

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы выбора объектов таможенного послетаможенного аудита и дифференциации процедур проверок в условиях стремительного роста объемов внешнеторговых операций и ограниченности контрольных ресурсов таможенных органов. В исследовании научно обоснован многоуровневый механизм отбора субъектов внешнеторговой деятельности для проведения таможенных проверок, при котором их интегральный рейтинг определяет форму, периодичность и объем проверки пропорционально данному уровню.*

Ключевые слова: *таможенный аудит, субъекты внешней торговли, рейтинговая оценка, механизм отбора, система внутреннего контроля, модель COSO, системный аудит, заключение независимого аудитора, транзакционные издержки.*

SCIENTIFIC AND PRACTICAL ASPECTS OF SELECTION MECHANISMS AND THE EVALUATION OF INTERNAL CONTROL IN CUSTOMS AUDITS

Mamarajabov Abdisamad Saidmurot ogli
Customs Institute of the
Customs Committee
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: Abdusamad3918@gmail.com

Abstract. *This article examines the issues of selecting the objects of post-clearance customs audit and differentiating the procedures for inspections in the context of the rapid expansion of the volume of foreign trade operations and the limited supervisory resources of customs*

authorities. The study scientifically substantiates a tiered selection mechanism for involving foreign trade entities in customs audits, whereby their integral rating level determines the form, frequency and scope of the audit in proportion to that level.

Keywords: *customs audit, foreign trade entities, rating assessment, selection mechanism, internal control system, COSO model, system-based audit, independent auditor's opinion, transactional costs.*

Kirish

Global ta’minot zanjirlarining murakkablashuvi va xalqaro savdoning raqamli transformatsiyasi sharoitida zamonaviy bojxona ma’muriyatchiligi oldida ikki tomonlama strategik vazifa turibdi: bir tomondan, davlat byudjetining fiskal barqarorligini va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, ikkinchi tomondan esa halol tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun ma’muriy va tranzaksion to‘siqlarni minimallashtirish orqali tashqi savdoni rag‘batlantirish[1, 2]. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 56,76 foizini tashkil etgani hamda BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi hisobotlarida global davlatlararo savdo hajmi 33 trln AQSH dollaridan oshgani tashqi savdo oqimlarini boshqarishda post-nazorat instrumentlariga ehtiyoj yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda tashqi savdo erkinlashtirilishi va xalqaro bozorlarga integratsiyalashuv natijasida tashqi savdo aylanmasi keskin o‘sdi: Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga binoan, respublikaning tashqi savdo aylanmasi 2020 yildagi 36,3 mlrd AQSH dollaridan 2025 yil yakuniga kelib 81,2 mlrd AQSH dollariga yetdi (o‘sish 2,23 barobar), eksport hajmi 15,1 mlrd dollardan 33,8 mlrd dollarga, import esa 21,2 mlrd dollardan 47,4 mlrd dollarga ko‘tarildi. Bu esa Respublikada Bojxona kodeksi va sohani raqamlashtirishga oid farmon va qarorlarda [1, 2] belgilangan vazifalar doirasida nazorat markazini chegara postlaridan tovarlar chiqarib yuborilgandan keyingi bosqichga ko‘chirishni taqozo etmoqda.

Tashqi savdo operatsiyalari fizik hajmining ortib borishi, xalqaro savdo aloqalarining diversifikatsiyalashuvi hamda tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilayotgan tarif preferensiyalari va bojxona imtiyozlarining jadal kengayishi bojxona nazorati tizimini tashkil etishga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda chegara bojxona postlarida barcha tovarlar va tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha yalpi nazoratni amalga oshirish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas, balki mavjud infratuzilma, inson resurslari va texnik imkoniyatlar nuqtayi nazaridan ham murakkab jarayonga aylanmoqda. Yalpi nazoratning saqlab qolinishi tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tish vaqtini uzaytirishi, tashqi savdo ishtirokchilarining tranzaksiya xarajatlarini oshirishi hamda xalqaro logistika zanjirlarida ortiqcha kechikishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bojxona nazoratini auditning keyingi bosqichiga ko‘chirish jarayonida, birinchi navbatda, 45–47 ming nafar tashqi savdo subyekti orasidan cheklangan auditorlik resurslarini samarali taqsimlash muammosi yuzaga keladi. Mazkur holatda barcha subyektlarni bir xil intensivlikda tekshirish o‘rniga ularning tashqi savdo operatsiyalari hajmi, tovar nomenklaturasi, bojxona qiymatini deklaratsiyalash xususiyatlari, tarif preferensiyalaridan foydalanish darajasi, soliq va bojxona majburiyatlarini bajarish intizomi hamda avvalgi audit natijalarini hisobga oluvchi kompleks risklarni baholash mezonlarini shakllantirish zarur. Ikkinchi fundamental muammo esa yuqori darajadagi moliyaviy va bojxona intizomiga ega, moliyaviy hisobotlari mustaqil tashqi auditdan o‘tkazilgan yirik kompaniyalarda nazoratni tashkil etish metodikasining yetarlicha ishlab chiqilmaganligi bilan bog‘liq.

Adabiyotlar sharhi

Bojxona nazoratida tanlanma yondashuv va ichki nazorat tizimlariga tayanishning fundamental nazariy ildizlari neoinstitutsional iqtisodiyot nazariyalariga borib taqaladi. Xususan, J. Akerlof tomonidan asoslangan asimmetrik axborot nazariyasi regulyator (bojxona organi) va

iqtisodiy agent (tashqi savdo subyekti) o‘rtasida bitimning haqiqiy parametrlari bo‘yicha axborot notengligi mavjudligini ko‘rsatadi[3]. R. Kouz tomonidan ilgari surilgan tranzaksion xarajatlar nazariyasi esa har qanday nazorat tartiboti axborot yig‘ish, tekshirish va muvofiqlikni ta’minlash xarajatlarini yuzaga keltirishini, ushbu xarajatlarni optimallashtirish esa institutsional samaradorlikning bosh mezoni ekanligini isbotlaydi[4].

Xorijiy tadqiqotchilardan T. Yasui [5] hamda P. Minor, T. Ualmsley va E. Endean [6] Jahon savdo tashkilotining Savdo tartib-taomillarini soddalashtirish to‘g‘risidagi bitimi doirasida tovarlar chiqarib yuborilgandan keyingi audit va risk-menejment tizimlarining davlat byudjeti tushumlariga ta’sirini tadqiq etganlar. S. Mitaritonna, M. Ollareaga va A. Santana [7] hamda J. Aguirre va A. Villar [9] bojxona to‘lovlaridan bo‘yin tovlash determinantlarini ekonometrik baholash orqali fiskal yo‘qotishlarni qisqartirish mumkinligini ko‘rsatib berganlar. M.A. Hossayn (M.A. Hossain) bojxona auditi samaradorligida selektivlik (tanlov) mezonlarining hal qiluvchi o‘rnini asoslagan bo‘lsa [8], Ch. Liven va M. Yongfei [11] hamda D. Nguyen [10] bojxona-biznes hamkorligida korxonalarning komplayens va ichki nazorat tizimini baholash modellarini (COSO integratsiyasi asosida) o‘rganganlar.

O‘zbekistonning mahalliy iqtisodchi olimlari tomonidan ham iqtisodiy tahlil, audit va bojxona ma’muriyatchiligini rivojlantirish bo‘yicha salmoqli ilmiy maktab yaratilgan. Jumladan, M.Q. Pardayev, J.I. Isroilov, A.X. Xudayberdiyev, N.H. Haydarov, D.M. Rasulev va B.T. Bayxonovlarning tadqiqotlarida xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish va iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishning metodologik asoslari ishlab chiqilgan[12,13,14]. Bevosita bojxona ishi, bojxona to‘lovlari va bojxona auditi yo‘nalishida R.A. Turapov, S.A. Aripov, T.N. Pardayev, Sh.O‘. Azizov, Z.X. Makkamov, A.O. Nazarov, O.A. Sarmanov va F.F. Farxodovlar ilmiy izlanishlar olib borganlar[15-20]. Shuningdek, muallifning avvalgi izlanishlarida tashqi savdo subyektlari faoliyatini hisob-tahlil ko‘rsatkichlari asosida baholash masalalari o‘rganilgan[22]. Biroq mahalliy va xorijiy adabiyotlar sintezi shuni ko‘rsatadiki, bojxona auditiga subyektlarni jalb etishda ularning integral reyting balliga mutanosib ravishda audit shakli, davriyligi va qamrovini belgilovchi yaxlit tanlov mexanizmi jihatlari e’tibordan chetda qolgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning empirik bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Bojxona qo‘mitasining 2020-2025 yillardagi rasmiy statistik ma’lumotlari hamda 235 ta tashqi savdo subyektining 2022-2025 yillardagi moliyaviy va bojxona ma’lumotlari tashkil etadi.

Tashqi savdo subyektlarini bojxona auditiga saralash uchun dastlab 4 ta funksional blok va jami 29 ta ko‘rsatkichdan iborat 100 ballik integral reyting tizimi shakllantirildi. Har bir blokka teng ravishda 25 balldan ajratilib, mezonlarning vazn koeffitsiyentlari T. Saatining analitik iyerarxiya jarayoni (subyektiv vaznlashtirish) va Shennon entropiya usuli (obyektiv vaznlashtirish) kombinatsiyasi orqali aniqlandi.

Tanlov mexanizmining chegaraviy nuqtalarini matematik asoslash uchun ikki bosqichli ekonometrik model qo‘llanildi. Birinchi bosqichda bojxona auditi davomida qo‘shimcha bojxona to‘lovlari aniqlanishi ehtimoli binar logistik regressiya orqali baholandi: $\ln(P_i / (1 - P_i)) = 9{,}53 - 0{,}195\ R_i$. *(Bunda R_i-tashqi savdo subyekti balli)*

Ikkinchi bosqichda qo‘shimcha to‘lov aniqlangan holatlar uchun kutilayotgan undiruv miqdori logarifmik-chiziqli regressiya modeli yordamida aniqlandi: $\ln(S_i) = 9{,}698 - 0{,}057\ R_i$. Ikkala tenglamaning sintezi asosida har bir reyting balli uchun matematik kutilayotgan qo‘shimcha to‘lov miqdori $E(S_i) = P(R_i) * S(R_i)$ aniqlanib, gradiyent o‘zgarish nuqtalari (54, 60 va 70 ball) asosida subyektlar A, B, C va D reyting sinflariga tasniflandi.

Tahlil va natijalar

Tashqi savdo dinamikasi va amaldagi bojxona auditi tanlov amaliyotining empirik tahlili natijalari O‘zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillardagi makroiqtisodiy va fiskal

ko‘rsatkichlari tahlili tashqi savdo oqimlari jadal o‘sib borayotganligini, biroq an’anaviy tanlov usullariga tayangan bojxona auditining natijadorligi pasayish tendensiyasiga ega ekanligini ko‘rsatdi (1-jadval).

1-jadval

Tashqi savdo aylanmasi hajmi va bojxona auditi sonlarining tahlili[18]

Yillar	Tashqi savdo aylanmasi (mlrd $)	Eksport (mlrd $)	Import (mlrd $)	O‘tkazilgan bojxona auditlari soni	Audit natijadorligi
2020	36,3	15,1	21,2	—	—
2021	42,1	16,6	25,5	—	—
2022	50,0	19,3	30,7	353 *(yil 2-yarmi)*	10,8%
2023	63,5	24,9	38,7	653	21,5%
2024	67,2	27,3	40,0	649	14,8%
2025	81,2	33,8	47,4	603	5,5%

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2023–2025-yillarda o‘tkazilgan bojxona auditlari soni 653 tadan 603 taga kamaygan bo‘lsa, auditlarda qonunbuzarlik va qo‘shimcha bojxona to‘lovlari aniqlangan holatlar ulushi (salbiy natija) 2023-yildagi 21,5 %dan 2025-yilda 5,5 %gacha tushib ketgan.


Reyting darajasiga asoslangan tanlov mexanizmi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar davomida 235 ta tashqi savdo subyekti bo‘yicha ishlab chiqilgan 2 bosqichli model natijalariga ko‘ra, reyting balli 1 birlikka ortganda qo‘shimcha bojxona to‘lovi ehtimoli o‘rtacha 2,0 foizga, qo‘shimcha to‘lov miqdori esa bir ball uchun 5,5 foizga kamayadi. Ehtimollik va kutilayotgan qo‘shimcha to‘lov funksiyasining egri chizig‘i tahlili asosida tanlov chegaralari 70 ball, 60 ball va 54 ball etib belgilandi (2-jadval).

2-jadval.

Tanlov mexanizmining reyting sinflari asosida guruhlash orqali amalga oshirish tartibi[19]

Reyting sinfi	Qo‘shimcha to‘lov ehtimoli	Rejali tanlovga kiritilishi	Auditga jalb etish asosi	Audit shakli	Tekshiruv davri	Tekshiruv qamrovi (hajmi)
A sinfi - yuqori ishonchli (70–100 ball)	P ≤ 1,6%; qo‘shimcha to‘lov ulushi: 0%	Kiritilmaydi	Tasodifiy tanlov	Tizimga asoslangan audit	Ichki nazorat natijasiga ko‘ra	Ichki nazoratga ko‘ra qisqartiril-gan tanlanma
B sinfi - ishonchli (60–69 ball)	P = 1,9–10,2%; qo‘shimcha to‘lov ulushi: 4,1%	Kiritilmaydi	Tasodifiy tanlov yoki erta ogohlantirish signali	Kameral bojxona auditi	So‘nggi 1 yil	Faqat signal bo‘yicha maqsadli
C sinfi - o‘rta xatarli (54–59 ball)	P = 12,2–26,9%; qo‘shimcha to‘lov ulushi: 18,5%	2 yilda 1-marta	Rejali navbat	Kameral bojxona auditi	So‘nggi 2 yil	Statistik tanlanma
D sinfi - yuqori xatarli (0–53 ball)	P ≥ 30,9%; qo‘shimcha to‘lov ulushi: 77,4%	Har yili	Rejali navbat (ustuvor)	Kutilayotgan to‘lov yuqori bo‘lsa sayyor	So‘nggi 3 yil	Yalpi (to‘liq) tekshiruv

[18] Muallif ishlanmasi
[19] Muallif ishlanmasi



1-rasm. Reyting sinflari bo‘yicha subyektlar, huquqbuzarliklar va qo‘shimcha bojxona to‘lovlari nisbati[20]

Taklif etilgan tanlov mexanizmining ilmiy va iqtisodiy afzalligi shundaki, rejali auditorlik resurslari C va D sinflariga (subyektlar 45,7 %i) yo‘naltiriladi, tanlanmadagi barcha qonunbuzarliklarning 88,1 %i va jami qo‘shimcha bojxona to‘lovlarining 95,9 %i aynan mana shu 2 sinf hissasiga to‘g‘ri keladi. Reytingda yuqori natijalar ko‘rsatgan subyektlar uchun imtiyoz joriy qilinishi barcha subyektlarda reyting darajani oshirishga va bu orqali faoliyatini tartibga keltirish hamda qonunlarga rioya qilishga erishiladi.

Tadqiqotning muhim ilmiy natijasi sifatida A reyting sinfiga kiruvchi hamda moliyaviy hisobotiga ijobiy mustaqil auditorlik xulosasi berilgan tashqi savdo subyektlari uchun ichki nazorat tizimini baholashga asoslangan bojxona auditi metodikasi ishlab chiqildi. Buning uchun subyekt bir vaqtning o‘zida beshta institutsional-huquqiy shartga javob berishi lozim (3-jadval).

3-jadval

Tizimga asoslangan bojxona auditini qo‘llash shartlarining asoslari

№	Tizimga asoslangan bojxona auditini qo‘llash shartlari	Ilmiy-amaliy va metodologik asosi
1	Subyektning integral reytingi A sinfiga (70–100 ball) mansub bo‘lishi	Tanlanmada 70 balldan yuqori subyektlarda qonunbuzarlik aniqlanmagan (P ≤ 1,6%)
2	So‘nggi ikki yillik moliyaviy hisobotga modifikatsiyalanmagan (ijobiy) mustaqil auditorlik xulosasi berilgan bo‘lishi (XAS 700)	Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot ishonchliligining mustaqil tashqi tasdig‘i
3	So‘nggi uch yil davomida bojxona qonunchiligi buzilishi holatlari aniqlanmagan bo‘lishi	Subyektning uzoq muddatli barqaror komplayens tarixi
4	Reyting ko‘rsatkichlari (29 ta mezon) to‘liq va haqqoniy ma’lumotlar asosida hisoblangan bo‘lishi	Baholash ishonchliligi
5	Mustaqil auditor tomonidan rahbariyatga taqdim etilgan ichki nazorat kamchiliklari to‘g‘risidagi xatni taqdim etishga rozilik	Ichki nazorat tizimining zaif nuqtalarini oldindan diagnostika qilish uchun auditorlik dalili

Bu metodikada mustaqil auditorlik xulosasini ijobiy bo‘lishi bevosita bojxona auditidan ilgari o‘tkazilgan tashqi audit natijalarini bojxona auditida inobatga olish hisoblanadi. Bu o‘z o‘rnida vazifalar takrorlanishini kamaytiradi hamda tekshiruvlar optimallashadi.

Metodika COSO konsepsiyasi va XAS 315 / XAS 330 standartlariga uyg‘un holda 4 bosqichli algoritmda amalga oshiriladi: (1) Dastlabki diagnostika va mustaqil auditorning hujjatini tahlil qilish; (2) Bojxona majburiyatlari bo‘yicha ichki nazorat dizaynini baholash; (3) Nazorat vositalarini testlash asosida nazorat riski darajasini aniqlash va mohiyatan tekshiruv tanlanmasi

[20] Muallif ishlanmasi

hajmini qisqartirish; (4) Himoyalovchi trigger mexanizmi - agar nazorat testlarida tizimli chetlanish aniqlansa, audit darhol an’anaviy yalpi tekshiruv rejimiga o‘tkaziladi va subyekt ma’lum muddatga ushbu rejimdan foydalanish huquqini yo‘qotadi.

Ishlab chiqilgan ilmiy yangiliklar xususan, tashqi savdo subyektlarini reyting darajasiga asoslangan holda bojxona auditiga tanlash mexanizmining qo‘llanilishi natijasida bojxona auditlari natijadorligi (qo‘shimcha to‘lov aniqlangan auditlar ulushi) 5,5 foizdan 10,8 foizga (deyarli 2 barobar) oshishi hamda audit natijasida qo‘shimcha undirilgan bojxona to‘lovlari hajmi 20 foizga ko‘payishi hisob-kitoblar asosida asoslangan.

Yuqori reytingli va ijobiy mustaqil auditorlik xulosasiga ega subyektlarda ichki nazorat tizimini baholash orqali o‘tkaziladigan bojxona auditi metodikasi bojxona auditida simulyatsion sinovdan o‘tkazilganda, tekshiriladigan bojxona yuk deklaratsiyalari hajmi amalda o‘rtacha 30 %ga qisqarishi kuzatilgan, audit natijadorligi to‘liq saqlanib qolgan holda bitta auditga sarflanadigan vaqt o‘rtacha 20 %ga kamayishi kutiladi. Xalqaro tajriba yondashuvlaridan farqli ravishda, taklif etilgan metodikada milliy moliyaviy audit instituti bojxona auditi bilan institutsional integratsiya qilingan bo‘lib, bu parallel va takroriy tekshiruv xarajatlarini bartaraf etadi.

Xulosa

Tashqi savdo subyektlarini bojxona auditi o‘tkazish uchun jalb etishda ularning 4 ta blok va 29 ta mezondan iborat integral reyting darajasiga asoslangan, audit shakli, davriyligi va qamrovini shu darajaga mutanosib ravishda belgilovchi tanlov mexanizmi ilmiy asoslandi. Ekonometrik modellashtirish asosida belgilangan 4 ta reyting sinfi (A: 70–100 ball; B: 60–69 ball; C: 54–59 ball; D: 0–53 ball) orqali rejali auditorlik resurslarini qonunbuzarliklarning 88,1 %i va qo‘shimcha bojxona to‘lovlarining 95,9 %i to‘plangan C va D sinflariga markazlashtirish hamda bojxona auditi natijadorligini 5,5 %dan 10,8 %ga oshirish imkoniyati yaratildi.

Yuqori reyting darajasiga (A sinfi) ega va moliyaviy hisobotiga ijobiy mustaqil auditorlik xulosasi berilgan tashqi savdo subyektlari uchun ularning ichki nazorat tizimini baholash orqali o‘tkaziladigan bojxona auditi metodikasi ilmiy asoslandi. Mazkur metodika ichki nazorat testlari va tashqi moliyaviy audit natijalarini uyg‘unlashtirish orqali tekshiriladigan bojxona yuk deklaratsiyalari hajmini o‘rtacha 30 % ga, auditga sarflanadigan vaqtni esa 20 %ga qisqartirib, qonunga itoatkor subyektlarni rag‘batlantirishning ta’sirchan institutsional vositasi sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.03.2025-yildagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-57-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026 dagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son Farmoni.

3. Akerlof G.A. The Market for “Lemons”: Quality Uncertainty and the Market Mechanism // The Quarterly Journal of Economics. - 1970. - Vol. 84, - P. 488–500.

4. Coase R.H. The Nature of the Firm // Economica. - 1937. -Vol. 4, No. 16. -P. 386–405.

5. Yasui T. Background Paper for the WCO Revenue Conference: Revenue and the WTO Agreement on Trade Facilitation. -Brussels: World Customs Organization, 2014.

6. Minor P., Walmsley T., Endean E. Impact of WTO Trade Facilitation Agreement on Tariff Revenues and Border Fee Proceeds. -Washington, D.C.: USAID, 2017. -31 p.

7. Mitaritonna C., Olarreaga M., Santana A. Determinants and Pervasiveness of the Evasion of Customs Duties (Working Paper). -Spain, 2010. -25 p.

8. Hossain M.A. The Role of Selectivity Criteria for Effective Post-Clearance Audit (PCA): Bangladesh Perspectives // Customs Research and Application Journal. -2020. -Vol. 2, No. 1. -P.

1–12.

9. Aguirre J., Villar A. Administrative Costs and Tariff Rates in the Presence of Customs Evasion: Evidence from Ecuador. -Italy, 2021. -21 p.

10. Nguyen D. Customs-Business Partnership Compliance: Doctoral Dissertation Thesis. -Germany, 2020. -26 p.

11. Liwen C., Yongfei M. Role of Customs in Global Supply Chain Management and Trade Security. -China, 2021. -24 p.

12. Oguz S. The Impact of Customs Procedures on Global Competitiveness. -England, 2024. -25 p.

13. Pardayev M.Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlilning nazariy va metodologik muammolari: i.f.d. diss. avtoreferati. -Samarqand, 2001. -22 b.

14. Isroilov J.I. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining iqtisodiy tahlili: i.f.n. diss. avtoreferati. -Samarqand, 2004. -22 b.

15. Turapov R.A. O‘zbekiston Respublikasi bojxona faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari: i.f.d. diss. -Toshkent, 2006. -283 b.

16. Azizov Sh.O‘. Bojxona auditi metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. (DSc) diss. avtoreferati. -Toshkent, 2021.

17. Pardayev T.N. O‘zbekistonda bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish: i.f.d. (DSc) diss. avtoreferati. -Toshkent, 2023.

18. Makkamov Z.X. Bojxona to‘lovlari auditini takomillashtirish istiqbollari: i.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. -Toshkent, 2022.

19. Nazarov A.O. Chegara bojxona postlarida moliyaviy riskni minimallashtirish istiqbollari: i.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. -Toshkent, 2023. -137 b.

20. Sarmanov O.A. O‘zbekistonda bojxona to‘lovlari hisobi va tahlilini takomillashtirish: i.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. -Toshkent, 2024.

21. Farxodov F.F. Xalqaro integratsiya jarayonlarida bojxona xizmati fiskal faoliyatini takomillashtirish: i.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. -Toshkent, 2026.

22. Mamarajabov A.S. Bojxona auditida tashqi savdo subyektlari faoliyatini hisob-tahlil ko‘rsatkichlari asosida baholash metodikasini takomillashtirish // “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali. -Toshkent, 2026. -№16. -B. 896–908.